



TILNING SHAKLLANISH BOSQICHLARIDA ADABIYOTLARNING AHAMIYATI

Mahmudov Muhammaddiyor Ma'murjon o'gli

Andijon davlat chet tillari instituti talabasi

Tel: +998-77-014-81-05

E-mail: mahmudovmuhammaddiyor598@gamil.com

Muqimjon Axunov Muhammadaminovich

Ilmiy rahbar:

(PhD) filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

E-mail: muqumjon.axunov@bk.ru

Tel: +998979977443

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20268639>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 14-may 2026 yil

Ma'qullandi: 16-may 2026 yil

Nashr qilindi: 18-may 2026 yil

KEYWORDS

Devonu lugotit turk, Qutodgu bilig, Hibat ul-haqoyiq, Muhokamat ul-lugatayn, Boburnoma.

ABSTRACT

mazkur ishda tilning shakllanish bosqichlarida adabiyotning tutgan o'rni va ahamiyati ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Til jamiyat bilan birga rivojlanadigan ijtimoiy hodisa bo'lib, uning taraqqiyot jarayonida og'zaki va yozma adabiyot muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Ayniqsa, qadimgi turkiy yodgorliklar, xususan, "Devonu lugotit turk" hamda "Qutadg'u bilig" kabi asarlar til me'yorlarining shakllanishi, lug'at boyligining kengayishi va adabiy tilning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etgan.

Turkiy xalqlarning ko'p asrlik ma'naviy merosi jahon sivilizatsiyasi tarixida alohida o'rin egallaydi. Ayniqsa, XI-XVI asrlar oralig'ida yaratilgan adabiy va ilmiy asarlar nafaqat o'z davrining, balki bugungi kunning ham bebaho ma'naviy boyligi hisoblanadi. Bu davrda turkiy til ilm-fan, adabiyot va davlat boshqaruvi tiliga aylangan, uning nazariy va badiiy imkoniyatlari yuksak darajada namoyon bo'lgan. Mazkur jarayon natijasida turkiy tafakkur mahsuli bo'lgan qator fundamental asarlar maydonga kelgan.

Jumladan, Devonu lug'otit turk turkiy tillarning ilk mukammal lug'ati sifatida ularning boyligini ilmiy asosda namoyon etadi. Qutadg'u bilig davlat boshqaruvi va komil inson g'oyalarini badiiy-falsafiy talqinda yoritadi. Hibat ul-haqoyiq axloqiy-ijtimoiy masalalarni didaktik ruhda talqin qiladi. Muhokamat ul-lug'atayn turkiy tilning fors tilidan kam emasligini ilmiy dalillar bilan asoslaydi. Boburnoma esa tarixiy voqealarni bevosita muallif nigohi orqali yoritgan yirik memuar asar sifatida ajralib turadi.

Shu bois mazkur asarlar nafaqat adabiy yodgorlik, balki milliy o'zlikni, til taraqqiyotini va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim manbalardir. Ularni o'rganish orqali turkiy xalqlarning ilmiy tafakkuri, ijtimoiy qarashlari hamda badiiy mahorati haqida chuqur tasavvur hosil qilish mumkin.

Sharq adabiyotlarining ilk bosqichlarida so'zlar shakllanishi

"Devonu lug'oti turk" XI asrda yashab ijod qilgan buyuk turkiy olim Muhmud Koshg'ariy tomonidan 1072-1074 yillarda yozilgan mashhur lug'at asaridir. Asar arab tilida yozilgan bo'lib, asosiy maqsadi arab xalifaligi hududida yashagan xalqlarga turkiy tillarni o'rgatish va turkiy xalqlarning boy madaniyati hamda tilini tanishtirishdan iborat bo'lgan.

“Qutadg‘u bilig” (“Saodatga eltuvchi bilim” yoki “Baxt kelturuvchi bilim”) XI asr turkiy adabiyotining eng yirik va muhim yodgorliklaridan biridir. Asar muallifi Yusuf Xos Hojib bo‘lib, u bu asarni 1069–1070 yillarda yozgan va “Tavg‘ach”, “Baug‘ra”, Xonga taqdim etgan.

“Hibat ul-haqoyiq” (“Haqiqatlar tuhfası”) turkiy adabiyotlarning muhim didaktik asarlaridan biri bo‘lib, XII asrda yashagan shoir Ahmad Yugnakiy tomonidan yozilgan. Asar Qoraxoniylar davri adabiy muhitida yaratilgan bo‘lib, o‘sha davr turkiy tilining boy imkoniyatlarini namoyon etadi.

O‘rta asirlar adabiyotida tilning shakllanishi

“Muhokamat ul-lug‘atayn” (“Ikki til muhokamasi”) - buyuk mutafakkir va shoir Alisher Navoiy tomonidan 1499-yilda yozilgan ilmiy-adabiy asardir. Bu asar turkiy (eski o‘zbek) tili va fors tilini qiyoslab o‘rganishga bag‘ishlangan.

“Boburnoma” - buyuk sarkarda va shoir Zahiriddin Muhammad Bobur tomonidan yozilgan tarixiy memuar asardir. Asar XVI asrda yaratilgan bo‘lib, eski o‘zbek (chig‘atoy) tilida yozilgan. “Boburnoma” sharq adabiyotida avtobiografik janrning eng yirik va nodir namunalariidan biri hisoblanadi.

Xulosaqilib aytganda, tilning shakllanishi va taraqqiyot jarayonida adabiyot hal qiluvchi omillardan biri hisoblanadi. Chunki adabiyot tilni nafaqat saqlab qoladi, balki uni boyitadi, me‘yorlashtiradi va takomillashtiradi. Har bir tarixiy davrda yaratilgan badiiy hamda ilmiy asarlar tilning lug‘at boyligini kengaytirgan, grammatik qurilishini mustahkamlagan va uslubiy imkoniyatlarini yanada rivojlantirgan. Shu jihatdan qaralganda, adabiy meros til taraqqiyotining asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida namoyon bo‘ladi.

Turkiy adabiyot tarixida yaratilgan qator yirik asarlar bu jarayonni yaqqol tasdiqlaydi. Xususan, Devonu lug‘otit turk turkiy tillarning ilk mukammal yozma manbalaridan biri sifatida ularning lug‘aviy boyligini jamlab, ilmiy asosda tizimlashtirgan va kelajak avlodlarga yetkazgan. Qutadg‘u bilig esa adabiy tilning shakllanishi va taraqqiyotida muhim bosqich bo‘lib, davlat boshqaruvi hamda axloqiy-falsafiy qarashlarni yuksak badiiy saviyada ifodalagan. Shuningdek, Hibat ul-haqoyiq insoniy fazilatlarini targ‘ib etish orqali tilning didaktik imkoniyatlarini namoyon qilgan bo‘lsa, Muhokamat ul-lug‘atayn turkiy tilning nazariy jihatdan qudratini asoslab, uning boshqa tillar bilan teng ilmiy salohiyatga ega ekanini dalillar bilan ko‘rsatib bergan.

Demak, mazkur asarlar nafaqat adabiy yodgorlik, balki til taraqqiyotining muhim bosqichlarini aks ettiruvchi ilmiy-ma‘naviy manbalar sifatida ham alohida ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Mahmud al-Kashgari. Devonu lug‘otit turk / Tarjima va nashrlar asosida. – Toshkent: Fan, 1960–1963.
- 2.Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig / Nashrga tayyorlovchi: Q. Karimov. – Toshkent: Fan, 1971.
- 3.Ahmad Yugnakiy. Hibat ul-haqoyiq. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti, 1972.
- 4.Alisher Navoiy. Muhokamat ul-lug‘atayn. – Toshkent: Fan, 1967.
- 5.Zahiriddin Muhammad Bobur. Boburnoma / Nashrga tayyorlovchi: P. Qodirov. – Toshkent: Sharq, 2002.
- 6.Abdurahmonov G‘. A. O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1987.
- 7.Shukurov R. O‘zbek adabiy tili tarixi. – Toshkent: Fan, 1993.